

KORRUPTSIYAGA QARSHIMIZ



KORRUPTSIYAGA QARSHIMIZ

Bugungi kunda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish va unga sharoit yaratib beruvchi holatlarni bartaraf etishga ulkan e'tibor berilganligi mamlakatimizda korrupsiya hali ham jamiyat hayotining qismi sifatida mavjudligini ko'rsatadi. Davlatdagi barcha huquqni muhofaza etuvchi organlar tarkibida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha alohida tuzilmalar tashkil etilib, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan.

Korrupsiya ismli mazkur illat bartaraf etish bo'yicha jahon ham jamiyati tomonidan yuqoridagi kabi qonunlar va bir qator samarali ishlar amalga oshirilgan bo'lsada, lekin hanuzgacha uni bartaraf etishni imkoniyati yo'q.

Xususan, korrupsiyaga unga beriladigan jazoni og'irlashtirish orqali kurashish samarali yo'l emasligini, jazolash funktsiyasi orqali korrupsiyani yo'qotib bo'lmasligini chet el davlatlar qonunchiligi misolida ham ko'rishimiz mumkin. Xususan, Xitoy halq demokratik respublikasida korrupsion holatga yo'l qo'ygan mansabdor shaxslar muqarrar jazo o'lim jazosiga hukm qilinsada, korrupsiya holatlar haligacha uchrab turibdi.

Halqimizda bir naql bor - "kasalni davolagandan uni oldini olgan avzal". Xo'sh, men bu bilan nima demoqchiman. Biz korrupsiyaga emas, korrupsiyaga shart-sharoit yaratib berayotgan holatlarga qarshi kurashishimiz va aholi savodxonligini oshirish orqali korrupsiyaga qarshi kurashishni uzoq muddati va samarali mexanizmi yaratishimiz mumkin. Bu mexanizmni ishlashi davlat organlarini ichki va tashqi nazorat tartibidagi nazorat tizimi kengaytirish bilangina cheklanmasdan xalq nazoratini ham kuchaytirish muxim rol o'ynaydi. Halq nazoratini ommaviy axborot vositalariga erkinlik berish yo'li bilan amalga oshirishimiz mumkin.

Korrupsiyaga qo'yidagi holatlar shart-sharoit yaratib berishi mumkin:

- Aholini davlatni nazorat qilishdagi sust ishtiroki;
- Davlat sektorida xizmat qilayotgan davlat xizmatchilarini daromadlarini xususiy sektorga topish mumkin bo'lgan daromadlardan kamligi;

-
- Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solinishi;
 - Mamlakat yuqori boshqaruv olganlarining aholidan uzilib qolganligi;
 - Inflyatsiyaning yuqori darajasi;
 - Mamlakatdagi diniy va axloq qoidalari.

Bugungi kunda mamlakatimizda uchrayotgan korrupsiya holatlari mansabdor shaxslar yoki pora taklif qilayotgan shaxslarning huquqiy ongi pastligidan kelib chiqayotganligi yo'q, ular korrupsiya va pora berish oqibatlari haqida bila turib mazkur jinoyatga qo'l urishmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish darkorki, biz jamiyatni korrupsiyaga nisbatan dunyoqarashini o'zgartirish orqali aholi savodxonligini oshirishimiz va korrupsiyaga shart-sharoit yaratib berayotgan holatlarni bartaraf qilishimiz lozim.

Sherzod Madumarov, jinoyat ishlari bo'yicha So'x tuman

sudining raisi

2022-07-21 15:55:25